

## **EMOTSIONAL INTELLEKT HAQIDA NAZARIYALAR. BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY FAOLIYATIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING O‘RNI.**

**Xo‘jamova Shohida Alpomish qizi**

*TerDPI pedagogika va psixologiya mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

**Ilmiy rahbar: Eshmurodov O**

Hozirgi vaqtda emotsional intellekt fenomenini o’rganish psixologiya fanining eng dolzarb yo’nalishlaridan biridir. Bu konstruktsiya ko’plab olimlar, shuningdek, boshqaruvchilar faoliyatining kommunikativ komponenti samaradorligini oshirish ustida ish olib borayotgan amaliyotchilar emotsional intellektni insonning ijtimoiy muvaffaqiyatining asosi deb bilishlari sababli o’rganilmoqda. Shunday qilib, oliy ma’lumot olish jarayonida mutaxassislar tayyorlashda kelajakdagি muvaffaqiyatlar garovi sifatida emotsional intellektni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Bugungi kunga kelib, emotsional intellekt bir nechta nazariyalar bilan tavsiflanadi: emotsional va intellektual qobiliyatlar nazariyasi J. Mayer, P. Salovey, D. Karuzo R. Bar-On tomonidan emotsional intellektning kognitiv bo’lmagan nazariyasi; D. Goultmanning emotsional kompetentsiya nazariyasi D. Lyusin tomonidan emotsional intellektning ikki komponentli nazariyasidir, Shu bilan birga, barcha tadqiqotchilar o’zlari o’rganayotgan konstruksiyani “emotsional intellekt” deb atashlariga qaramay, ularning o’rganilayotgan hodisaning psixologik mohiyati haqidagi fikrlari turlichadir. Emotsional intellekt mavzusidagi birinchi nashr P. Salovey va D. Mayerning ishi edi. Mualliflar emotsional intellektni, hissiyotlarda mavjud bo’lgan ma’lumotlarni qayta ishlash qobiliyati sifatida aniqladilar: emotsiyalarning ma’nosini hissiy ma’lumotlardan, ularning bir-biri bilan aloqalarini aniqlash, fikrlash va qaror qabul qilish uchun asos sifatida qilishgan.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda ko’pincha, boshqa odamlarning hissiy holatini tushunishga imkon beradigan, hissiy yo’nalganlik haqida ham qarashlar mavjud. Bunga asosiy sabab, bizning fikrimizcha, inson psixikasidagi kognitsiyalar va hissiyotning o’zaro uyg’unligini ta’minlaydigan emotsional intellektdir.

Kanadalik psixologlar X. Livingston hamda M. Fosterlarning aytishicha, bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy faoliyati, shubhasiz, hissiy xarakterga ega bo’lib, u yuqori darajadagi hissiy zo’riqish, mas’uliyat, o’zaro ta’sirlashuv, yuqori faollik kabi holatlarning kechishi bilan ham uzviy bog’liq. Ya’ni, mazkur holatlarda bo’lajak o’qituvchilar o’zini o’zi tartibga sola bilishi, o’z harakatlari ixtiyoriyligini nazorat qila olishi zarur hisoblanadi. Tadqiqotchi S. Steyn o’zining «Emotsional

madaniyat va sizning muvaffaqqiyatingiz» nomli monografiyasida, bo’lajak o’qituvchilarda rivojlangan emotsiyal-ixtiyoriy o’zini o’zi tartibga solish ko’nikmasini quyidagicha ta’riflaydi:

- boshqalar holatiga va vaziyatiga bo’lgan empatiya;
- hissiy tiyilish, optiqcha emotsiyaga berilmaslik, jangovor mardonavorlikni ushlab tura olish;
- muloqot vaziyatlarida muvozanatlilikni saqlay bilish;
- kommunikativ bag’rikenglik va hissiy barqarorlik.

Shuni esda tutish lozimki, o’qituvchi kasb ijtimoiy uzlusiz soha bo’lib, unda bo’ysunuvchilar, hamkasblar, qo’mondonlar, o’qituvchilarning oila a’zolari, fuqarolik xodimlari munosabatlari aks etgan. Shu bois, kasb egalari sub’ekt-sub’ekt munosabatlarini nazorat qilib borishlari zarurdir. X.I. Tsechoevaning fikriga ko’ra, emotsiyal intellekt o’zga insonlarning hissiy holatlari va xulq-atvor ko’rinishlarini zudlikda ilg’ab, maqsadlarini qabul qilish hamda tartibga sola olish mahoratidir.

Tadqiqotchi I.N. Meshcheryakovaning xulosalariga ko’ra, emotsiyal intellekt - o’zini o’zi integratsiyalash, o’zi va boshqalarning his-tuyg’ularini baholay olishi hamda o’z harakatlarini mazkur insonning holatiga to’g’rilay olish sifati. Emotsional intellekt – bo’lajak o’qituvchilar faoliyatida charchoq sindromini yengib o’tishning psixologik manbasi hisoblanadi. I.N. Andreeva esa, emotsiyal intellekt rivojlanishining tarkibiy tuzilmasini quyidagilarga ajratadi:

- hissiy xabardorlik – verbal va noverbal xatti-harakatlar hamda begona shaxslarning kechirayotgan his-tuyg’ularini oldindan ko’ra olishi;
- his-tuyg’ularni nazorat qilish, bu hissiyotlarning paydo bo’lish determinantlari va uning rivojlanishini ta’minlovchi sharoitlarni aniqlash hamda o’z emotsiyal holatini tartibga sola olish kabi qobiliyatlardan iborat;
- o’zini o’zi motivatsiyalay olish;
- yuqori darajadagi empatiya – bu boshqa odamlarning his-tuyg’ularini tushunish va ularga hamdardlik bildirish qobiliyati.

Yuqoridagi mulohazalar bizda, insonning psixologik madaniyati tarkibida bo’lgan, emotsiyal intellektning funktsiyalarini aloxida qilib yoritish imkonini berdi:

- baholovchi funktsiyasi - o’zi va atrofidagilarning hissiy reaksiyalarini, kasbiy tajribasini, xulq-atvor yo’nalishlariniadolatli baholashga yordam beradi;
- moslashuvchanlik funktsiyasi - moslashish qobiliyat, hissiy jihatdan, avvaldan aytib bo’lmaydigan hamda tez o’zgaruvchan vaziyatda chidamligini belgilaydi;

- ifoda etish funksiyasi - o'z his-tuyg'ularini hamda istaklarini yorqin ifoda etish, harakatlarini mustaqil tartibga solish, o'z fikrlarini himoya qila olish bilan tavsiflangan;
- refleksiv funksiyasi - o'zaro munosabatlar va hissiy harakatlarni tushunishga imkon berishni ko'rsatadi;
- kommunikativ funksiyasi - verbal hamda verbal bo'limgan muloqotni tushunish, ularni intellektual kodlashga asoslanganligi;
- tartibga soluvchi funksiyasi - nizoli xatti-harakatlarni bartaraf etish strategiyalarini yaratish va hissiy zo'riqishlarni pasaytirishga xizmat qiladi;
- gedonistik ya'ni, forig'lantiruvchi funksiyasi - muvaffaqiyatlarga hissa qo'shuvchi, tashqi muhit va shaxslaro jamoani birlashtirishga imkon beradi.

Bundan tashqari, A.V. Karrovning aytishicha, emotsional intellektning rivojlanganligi, har qanday sohadagi shaxslarda namoyon bo'luvchi uyatchanlik, qo'rkoqlik, tushkunlik, tajovuzkorlik kabi salbiy illatlarning oldini oluvchi psixologik jarayon ham hisoblanadi. Boshqa shaxslar kabi o'qituvchilar shaxsida ham emotsional bilimdonlikni rivojlanishi 40-49 yoshgacha davom etadi. Bu holat, ularda o'z hayot yo'lini va kasbiy faoliyatini samarali kechishiga imkon beradi. P.G. Xefnonning so'zlariga ko'ra, qaysi kasb bo'lmasin talabalik davri intensiv aqliy, shaxsiy va intellektual rivojlanish davri ya'ni, shaxs yaxlitligini shakllantiruvchi davr hisoblanadi.

M.D. Dzugkoeva o'z disseftatsiyasida talabalik davri haqida shunday deydi: «talabalik davri qaysi sohada bo'lmasin, u shunday davrki, insonda o'z o'zini anglash, shaxsiy hayotga munosabat, mutaxassis sifatida o'zini aniqlashtirish, professional ustuvorlikka erishish, o'zini o'zi o'zgartirish kabi sifatlar rivojlanishi ta'minlanadi». T.S. Knyazovaning fikriga ko'ra, bo'lg'usi kasb egalarining ta'lim faoliyatiga bog'liq hissiy jarayonlar va salbiy hissiy holatlarni zararsizlantirish usullari sifatida, quyidagi psixologik mezonlar ajratiladi:

- o'quv jarayoni ishtirokchilarining diqqatini jamlash;
- o'quv faoliyatida ijobiy hissiy muhitni yaratuvchi psixologik munosabatlar tizimidan foydalanish;
- hissiy tajribalarni qo'zg'atadigan turli hissiy boy psixologik, pedagogik vositalardan foydalanish va hokazo. Demak, bo'lajak o'qituvchilarda noqulay vaziyatlarga qarshi turish qobiliyati ham rivojlangan bo'lishi kerak. Bo'lajak o'qituvchilarning hissiy-irodaviy jihatdan barqarorligi - bu ulardag'i o'z hissiy holatlarini tartibga solish qobiliyati, ya'ni hissiy jihatdan barqaror bo'lishi, har xil sharoitlarda ishonch bilan ishlay olish qobiliyatlarini tavsiflovchi tushunchadir. T.S. Kiselevaning yozishicha, talabalar shaxsida rivojlangan hissiy-emotsional barqarorlik bu - bir tomonidan ularning psixik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan

omillarga qarshi immuniteti bo’lsa, ikkinchi tomondan o’z xatti-harakatlarini nazorat qilish va ularni ushlab turish qobiliyati kabilar uchun keng xizmat qiladi.

Tadqiqotchilardan K.K. Platonov hamda L.M. Shvartslar birgalikda, 1948 yilda o’qituvchi uchuvchilarning emotsiyal-irodaviy barqarorligini o’rgangan. Mualliflarning ta’kidlashicha, hissiy jihatdan beqaror bo’lgan insonlar hissiy holatini tez-tez o’zgarishiga moyil bo’lganlardir. K.K. Platonov shunday yozgan edi: «hissiy beqarorlikda hal qiluvchi omil qo’zg’aluvchanlik emas, balki uning hissiy tajribasi, insonlarning hissiy olamidan xabardorlik imkoniyati hisoblanadi. **Xulosa** qilib aytganda, bu nafaqat insonning hissiy sohasi, balki uning irodasiga xos xususiyatlar bilan ham uzviy bog’liqidir». Darhaqiqat, muallif bu yerda hissiy barqarorlikni o’z hissiyotlarini boshqara olish, ishda yuqori professional ko’rsatkichlarni saqlab qolish, hissiy ta’sirlarga qaramasdan, murakkab va xavfli faoliyatni keskiniksiz bajara olish malakasi deb ta’riflagan. Hissiy-irodaviy barqarorlik bu – bo’lajak o’qituvchi shaxsning aqliy, hissiy, irodaviy, intellektual va motivatsion sohalarining o’zaro ta’siri bilan ta’riflanadigan shaxsning yaxlit xususiyatlari majmuidir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva, S., & Eshmuradov, O. (2023). Профессиональное Самоопределение И Выбор Профессии Учащимися В Психологическом Знании. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8395>
2. G’oziev E.G’. Talabalarni umumlashtirish usullariga o’rgatish va ularning aqliy taraqqiyoutu.- T.:O’qituvchi, 1983. – 150 b.
3. Андреева И.Н. Гендерные различия в сфере эмоционального интеллекта Материалы Междунар. междисциплинарной научно-практ. конф., 19-20 декабря г. Минск, 2003 . – С. 94- 102.
4. Волов В.В. Инновационный подход к исследованию базовых механизмов эмоционального интеллекта Актуальные проблемы психологического знания. 2016. № 3. - С. 93-102.
5. Выскочил Н.А. Детерминанты уровня эмоционального интеллекта Казанский педагогический журнал. – 2009. - №11-12. –С. 123-129.
6. Нгуен М.А. Роль эмоционального интеллекта в становлении личности студента- профессионала / Нгуен М.А. //Профессиональное образование. Столица. - "Новые педагогические исследования". № 5, 2007. – С. 137-140.
7. Равшанов Л.У. Формирования социально-психологического имиджа современного военнослужащего / IX Международной научно-практическая конференция актуальный вопросы науки и техники в сферы развития авиации. – Минск, Военная Академия Республики Беларусь. 2019. – С.26 -28.
8. Степанов И.С. Психологические условия формирования эмоционального интеллекта личности. Диссертация. 2010. – С.73-80.

9. Царенкова М.М. Эмоциональный интеллект: от иерархических моделей к представлению о единой когнитивной способности. Психологические исследования: электронный научный журнал. 2014. № 37. - Т.7. - С. 4-10.
10. Юркевич В.С. Проблема эмоционального интеллекта. // Практическая психология образования, 2012, № 3 (4) июль- сентябрь, - С.10-16.

